



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ *ning*

20__ - 20__ - o'quv yiliga 11 – sinf
I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf adabiyot fani I chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Kirish. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi	1		
2.	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni	1		
3.	“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni syujetining o‘ziga xosligi	1		
4.	Dostondagi asosiy qahramonlar tavsifi	1		
5.	Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning badiiy-estetik hamda tarbiyaviy ahamiyati	1		
6.	Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘otit-turk” asari. Mahmud Koshg‘ariyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Mahmud Koshg‘ariy haqidagi ma’lumotlarning “Devonu lug‘otit-turk”da aks etganligi	1		
7.	“Devonu lug‘otit-turk” – izohli lug‘at va qomusiy asar sifatida. Unda badiiy durdonalarning o‘ziga xos tarzda ifoda etilgani, ularning yaratilishi, janri, mazmuni, badiiy xususiyatlari	1		
8.	Mehnat va marosim qo‘shiqlari. “Alp Er To‘nga” marsiyasi. “Devon”dagi maqollar xalq donoligining ifodasi sifatida	1		
9.	BSB-1. Insho (50 ball)	1		
10.	Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” asari. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi. Yusuf Xos Hojib – didaktik dostonchilikning asoschisi	1		
11.	Dostonning o‘ziga xos jihatlari. Undagi to‘rt timsol tavsifi.	1		
12.	Asarning tarbiyaviy ahamiyati	1		
13.	“Qisasi Rabg‘uziy”da avtobiografik ma’lumotlar.	1		
14.	“Qisasi Rabg‘uziy” – o‘zbek nasrining ilk yirik yodgorligi.	1		
15.	Asardagi qissa va hikoyatlar kompozitsiyasi	1		
16.	“Uzum hikoyasi”	1		
17.	CHSB-1. (40 ball)	1		
18.	Mustaqil o‘qilgan asar yuzasidan suhbat	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltirish vositasi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma’naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o‘ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta’sir o‘tkazishini, o‘ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o‘zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o‘qib tahlil qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo‘lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo‘lganligi haqida tushuncha berish. o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Assalomu alaykum, qadrlı o‘quvchi!

Siz umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik litsey yoki kasb- hunar kollejini bitirish davriga ham yetib keldingiz. Yoshingiz ancha ulg‘aydi, hayotda biroz tajriba ham orttirdingiz. Muhimi, kitob bilan, ayniqsa, badiiy adabiyot bilan qadrdon bo‘lib qoldingiz. Badiiy adabiyotning sirli o‘lamini sizni o‘ziga chorlab turibdi. Siz yaxshi kitob, betakror badiiy asar inson ma’naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildingiz. Darhaqiqat, umrboqiy kitoblarda olam va odam haqidagi hamma bilimlar jamlangan bo‘ladi. Ulardan har kim o‘z qiziqishiga mos mavzularni, ehtiyojlariga ko‘ra ma’lumotlarni topadi. Zero, kitoblar siz-u bizni ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undaydi.

Hayotning turli bosqichlarida insonning olamga qarashlari, qiziqish va ehtiyojlari ham o'zgarib, takomillashib boradi. Uni inson va jamiyat, muayyan shaxs ruhiyati kabi masalalar ko'proq qiziqitira boshlaydi. Yaxshi kitoblar qiziqishlarga munosib javob beradigan eng muhim manba sanaladi. Aslida, kitob o'qishni bolalar ham, kattalar – hamma yaxshi ko'radi. Chunki kitob har bir inson hayotida, dunyoqarashi ning shakllanishi va kenga yishida alohida o'rin tutadi; undan har bir tafakkur egasi o'ziga mos va munosib bo'lgan ma'naviy ozuqa oladi. Siz, azizlar, haqiqiy badiiy adabiyot hayotning o'ziga xos in'ikosi sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta'sir o'tkazishini,

o'ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishini aslo inkor etmasangiz kerak. Hozirgacha xalq og'zaki ijodi, o'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o'qib tahlil qildingiz. Va bu jarayonda olamdagi rang-barang hodisalar-u millati, yoshi, kasb kori, qiziqishlari, tasavvur va dunyoqarashlari bir-biriga o'xshamaydigan Hazrat Odam avlodlarining yashash tarzi, tarixi, favqulodda vaziyatlardagi ruhiyati hamda kayfiyatidagi



o'zgarishlar tasvirlari bilan atroflicha tanishdingiz. Ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo'lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasoratlari bayonidan, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan odamlar tasviridan qanchalik mamnunlik tuygan bo'lsangiz, aksincha, qo'rqqoq va xiyonatkor, johil va nodon, ishyoqmas va tanbal, loqayd va madaniyatsiz kimsalar obraziga duch kelganda ichingizda bir afsus-nadomat va ranjishlar paydo bo'lgandir, ehtimol. Bu hol Sizning ko'nglingizda o'zbekona milliy-ma'naviy hayot tarzimizga mos va munosib fazilatlar shakllanib borayotganidan darak beradi. Hadisi sharifda aytilganidek, «... agar siz yaxshi narsalarni ko'rib xursand bo'lsangiz va, aksincha, yomon narsani ko'rib ranjisangiz, haqiqiy mo'min ekansiz». Bu yaxshi insonga xos xislat belgisidir. Kitobxonlik madaniyatining kamol topishi bu adabiy didning, badiiy-estetik zavqning, nutqiy aniqlikning, demak, go'zallik va xunuklik haqidagi qarashlarimizning teranlashib borishi demakdir. Bu yo'ldagi tahsilda Sizga xalq og'zaki ijodi, qadimiy adabiyotimiz, Sharq va G'arb xalqlari adabiyotining go'zal namunalari yordam berishi tabiiy. Badiiy asarlarni o'qimay, go'zal adabiyot bilan oshno tutinmay yashayotgan odam hayotda eng nochor va achinarli holga tushib qoladi. Bilib qo'yingki, kitobxonlik tug'ma xususiyat emas, demak, komillikni istagan har kim uni o'zida shakllantirishi va rivojlantirishi mumkin. Ko'p kitob o'qigan odam tez fikrlashi, xotirasining kuchliligi, muhim bilan nomuhimni ajrata olishi, voqelikka ijodiy yondashishi, tashabbuskorligi, hodisalarga tanqidiy nuqtayi nazardan fikr bildira olishi, fikr-mulohazalarini aniq ifodalashi, ayniqsa, og'zaki va yozma nutqining ravonligi bilan ajralib turadi. Mustaqil kitob o'qishda tushunib, anglab o'qish; o'qiganlarni uqish, matndagi muhim o'rinlarni ajrata olish va ayrim zarur gaplarni maxsus daftarchaga ko'chirib olish o'quvchiga katta foyda beradi. Aziz o'quvchi! Kitob o'qishda asar tanlashga qiynalsangiz, albatta, kattalardan, ota-onangiz yoki ustozingizdan yordam so'rashni unutmang. Ayni damda o'z istak va qiziqishlaringizga mos kitob tanlash sizga ko'proq naf keltiradi. Biror matndagi qiyin va tushunarsiz so'zlarni to'g'ri anglashda sizga maxsus lug'at kitoblari, elektron lug'atlar, ma'lumotnoma va fan sohasiga doir qomuslar yordam beradi. Sir emaski, hozirgi davrda bunday manbalarni topish imkoniyatlari kun sayin ortib bormoqda. Kitobxonlik madaniyatining yuksalishida o'z ustida ishlashning, mustaqil va ijodiy faoliyatning ahamiyati beqiyos. Shuningdek, ulug' ajdodlarning hayoti va ijodidan saboq olish, ular yozib qoldirgan hayotiy hikmatlardan bahramand bo'lish ham lozim. Mahmud Koshg'ariy «Qut belgusi – bilig» degan maqolning turkiy xalqlar og'zaki ijodida juda qadim davrlardan boshlab faol iste'molda bo'lganini yozadi. Bu har qanday fazilatning boshlanishi bilimdir degan ma'noni anglatadi. Bilimning manbayi esa, tabiiyki, kitob bo'ladi. Yusuf Xos Hojib o'zining bosh qahramoni – Eligni kitobning doimiy yo'ldoshi sifatida tasvirlaydi:

Elig bir kun o'ldurdi yangluz o'zun, Kemishti kitab, o'tru baqti ko'zun Mazmuni: *Elig bir kun yolg'iz o'zi o'tirdi, Kitobni qo'ydi, ko'zini uzoqqa tikdi.* Adibning nazarida, elchi – diplomat lavozimidagi kishi uchun ham asosiy fazilat ko'p kitob o'qish va so'zning mohiyatini bilishdan iborat. Yaxshi bilasizki, Alisher Navoiy asarlarining asosiy qahramonlari bilimi, shijoati, go'zal xulqi bilan ajralib turadi. Zero, Hay qabilasining boshlig'i qizi uchun maktab ochib bergani, Farhodning turli fan sohalaridan boxabarligi, Shirin atrofidagi qizlarning barchasi hayoli va oqila, har bir san'atda mohir bo'lgani tasodifiy emas. «Hayrat ul-abror»da insonni ulug'laydigan imon, karam, adab, qanoat, vafo, rostlik, ilm kabi fazilatlar haqida alohida fikrlar bayon qilinadi. Hazrat Navoiy «Lison ut-tayr» dostonida yozadi: O'z vujudingg'a tafakkur aylagil, Har ne istarsen – o'zungdin istagil. Bu martabaga esa faqat kitob o'qish bilan erishish mumkin. Zotan, Alisher Navoiy inson ma'naviyatini boyitishga har qanday adabiyot emas, balki yuksak badiiyat talablariga Javob bera oladigan asarlargina xizmat qila olishini ham alohida ta'kidlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida ifodalangan tuyg'ular qalbga zavq bag'ishlaydi; «Boburnoma»da aks etgan hayot hodisalari o'quvchini o'yga toldiradi, unda insonning kuch va qudrati ulug'lanadi, ishonch va e'tiqodini mustahkamlaydigan voqealar bayon qilinadi; odamning yuragida maqtovga loyiq xislatlarni paydo qilishga rag'bat uyg'onadi. Bobur otasi haqida yozganida, uning botirligi, shijoati kabi fazilatlar bilan birga, ayniqsa, kitobsevarligiga, xususan, «Xamsa» dostonlarini zo'r ishtiyoq va qiziqish bilan o'qiganiga alohida urg'u beradi. Umuman olganda, adabiyot tarixidagi iste'dodli adiblar va adabiy qahramonlar tanlagan yo'l, ularning kechinmalari, his-tuyg'ularining betakror tasviri asrlar bo'yi hammani o'ziga maftun qilib keladi. Bosh qahramonlar tabiatidagi kurashuvchanlik, beg'uborlik, pokizalik bizning qalbimizga, ruhimizga o'rnashadi. Tabiiyki, ayrim qahramonlarning murakkab taqdiriga nisbatan ham bizning loqayd va e'tiborsiz bo'lishimiz mumkin emas. Badiiy adabiyotni barcha ma'naviy qadriyatlar va yuksak insoniy fazilatlar bilan uyg'un tarzda talqin etish mumkin. Shunda odamning olamdagi moddiy va ma'naviy hodisalarga yaxlit munosabati namoyon bo'ladi. Har bir insonning o'z ongi, tasavvuri, tafakkur tarzi, dunyoqarashi bilan belgilanadigan ichki dunyosi bor. Uning «yaxshi» yoki «yomon» deb nom olishi mana shu ichki dunyoning mazmun- mohiyatiga bog'liq. Agar u jamiyatning tegishli bosqichdagi ta'lablariga, jamiyat a'zolarining umumiy axloqiy-madaniy qarashlariga uyg'un bo'lsa, yaxshi, aks holda esa yomon degan nom oladi. Ikkinchidan, har bir inson jamiyat a'zolari bilan birga yashaydi. Demak, u atrofda g'ilarning qiziqishlari, o'zi to'g'risidagi fikrlari va boshqa ta'sirli hollarini ham his qiladi. O'zbek ada biyoti durdonalari, G'arb va Sharq adabiyoti namoyandalarining asarlari ana shu hissiyot takomilida katta ahamiyatga ega. Nafaqat mumtoz yoki dunyo, balki zamondosh ijodkorlar, xususan, mustaqillik davri adiblari yozgan asarlar ham bizni o'zlikni anglashga, el-yurtni sevishga, erkinlikning qadriga yetishga, umuman, har tomonlama ma'naviy yuksalishga chorlab turadi. Muhtaram o'quvchi! Bir so'z bilan aytganda, badiiy adabiyot inson kamolotida asosiy vosita sanaladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Yozgi ta'tilda qanday badiiy asarlar o'qidingiz? Ulardan olgan taassurotlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.
2. Ular orasida sizga eng kuchli ta'sir qilgani qaysi asar bo'ldi? Nega shunday bo'lganini izohlang.
2. Asar tanlash va uni mutolaa qilishda, asosan, nimalarga e'tibor berdingiz?
3. Ko'p kitob o'qigan inson ma'naviyatiga qanday baho berasiz? Fikringizni hayotiy misollar asosida izohlang.
4. O'zbek adiblarining ma'naviyatga, adabiyotga doir qaysi hikmatli so'zlarini bilasiz?
5. Badiiy adabiyotning inson qalbi va jamiyat hayotiga ta'siri to'g'risida misollar asosida fikr bildiring.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma’naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o‘ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta’sir o‘tkazishini, o‘ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o‘zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o‘qib tahlil qilishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo‘lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasoratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo‘lganligi haqida tushuncha berish. o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

GO‘RO‘G‘liNING TUG‘ilISHI

(Dostondan olingan parcha ayrim qisqartishlar bilan berildi)

Burungi zamonda Yovmit degan el, Taka turkman degan yurt, Mari degan yana bir qo‘rg‘on bor edi. Yovmit yurtining Odilxon degan podshosi bor edi. Odilxon podshoning ikki o‘g‘li bo‘lib, kattasining oti Urayxon, kichkinasining oti Ahmadbek edi. Bibi Oysha degan bir qizi ham bor edi. Mari yurtining Qovishtixon degan xoni bor edi. Qovishtixonning To‘liboy sinchi² degan bir o‘g‘li bor edi. Ko‘p esli, aqlli, tamizli, farosatli odam edi. Mari ning begi Qovishtixon Yovmit elining xoni Odilxon podshoning bozorchi savdogarlarini yo‘lda talab oldi. Shunda molini oldirgan odamlar «dod!» deb Odilxon podshoga arzga keldi. Odilxon podsho buni eshitib, achchig‘i kelib, birdan sarboz askar chiqarib, to‘p-to‘pxonasi bilan Mari yurtini tep-tekis qilib yubordi.

Qo vishtixon bekni to'pga solib otib yubordi. Haligi bozorchi savdogarlarning mollarini olib berdi. Qovishtixonning yeti yoshli o'g'li – To'liboy sinchini bandi qilib olib keldi. Lekin otasining qilgan ishidan buni gunohsiz bilib, o'z oldiga xizmatkor qildi. To'liboy sinchi xizmat qilib yuraverdi. O'n to'rt yashar bo'ldi. O'n to'rtga kirguncha o'qib, xat-savodi chiqdi. Lekin o'zi ajab bir odobli, chiroyli, yaxshi yigit bo'ldi. Otlarning yaxshi-yomonini biladigan sinchi bo'ldi. «Bul otingiz yaxshi, bul otingiz yomon», – deb podshoning tablada turgan otlarini saralab, ajratib beradigan bo'ldi. Bir kunlari To'liboy sinchining xizmati yoqqanligidan: «Bu ham o'zimning suyagim-da», – deb Odilxon podsho Bibi Oysha qizi ni unga nikohlab berdi. Bibi Oyshaning bo'yida bo'lib, oy-kuni to'lib o'g'il tug'di, otini Ravshanbek qo'ydi. Shunda Ravshanbek besh yashar bo'ldi, uni maktabga berdi. Ravshanbek o'zi tengi bolalar bilan maktabda o'qib yuraberdi. Sakkiz yashar bo'lganda xat-savodi chiqdi. Taka Turkman degan yana bir yurt bor edi. Bu yurtda Jig'alixon degan bek bor edi. Jig'alixonning Gajdumbek degan o'g'li, Bibi Hilol degan qizi bor edi. Ana endi gapni Zargar degan shahardan eshiting: Zargar shahrining Shohdorxon degan podshosi bor edi. Kunlardan bir kuni Shohdorxon ikki yuz guburlarini yig'ib, maslahat qildi: – ...Mening bir o'yim bor: Yovmit yurtidan Odilxon podshoni yo'q qilaman, qo'rg'onini qulataman, o'ligini sulataman, xazina-pazinasini o'lja qilib, sizlarga talataman, – dedi. Shunda Shohdorxonning vaziri Holmon aytdi:

– E podsho, so'zingiz ma'qul, lekin elchi yubormoq lozim. Elchi yubormay birdan zo'rlik qilib yov yubormoq podsholardan lozim emas... Shunday bo'lsa ham, Holmonning so'zi yaylovga chiqmadi, bir o'zi bo'lib qoldi. Boshqasi buning so'ziga quloq solmadi. Esli, aqlli Holmon buni bilib, nochor indamay qoldi. Shunda Shohdorxon podshoning askar boshliqlari, maslahat beruvchi donolari birdan urush qilib, Odilxonni yurti Yovmitdan ko'tarib, yo'q qilib, o'ldirib, mollarini o'lja qilib olmoqchi bo'lib, maslahat qildilar. Bularni bu so'zda qo'ying, endi podshodan eshiting: Podsho: «Yovmit yurtiga lashkar jo'natinglar!» – deb amr qildi. Lashkarining orqasidan podsholik saltanati bilan Shohdorxon ham noibi Subyon deganni o'zining o'rniga o'tqazib, Holmon vazirdan tortib, barcha maslahat beruvchilari bilan bul ham keta berdi. Shohdorxonning lashkari uch oy yo'l yurib, uch oy deganda Taka-Yovmit Urganch yurtining Asqar degan tog'iga yetib qo'ndi. Shu kuni payshanba edi... Taka-Yovmit elining o'quvchi bolalari har kuni o'qib, payshanba kuni tushdan keyin ozod bo'ladigan rasmi bor edi. Shu kuni Taka-Yovmit madrasalaridagi katta-kichik Mullavachchalar tog'da sayohat qilmoqchi bo'lishib, To'liboy sinchining o'g'li Ravshanbek ularning kattasi bo'lib, tog'ga chiqdi. Bolalar tog'ni sayohat qilib, buloqlar, ko'kalam yerlarni tomosha qilib yurgan edilar, birdan quloqlariga otlarning dupuri keldi. Qarasalar, qirning boshini to'zon olibdi, qo'llarida yalang'och qilich, miltiqlari o'qlangan Lashkar bularga qarab daf qilib, to'rt tomonini qurshab olibdi. Mullalar buni ko'rib qo'rqib, yuraklari yorilib ketdi. Shunda askarlar bularni bandi qilib haydab Shohdorxon podshoga to'g'ri qildi. Shohdorxon qarasa, hammasi yosh bola ekan, ularni o'ldirmoqqa ko'zi qiymadi... Shohdorxon esli podsho edi, bularning qo'rqanini bildi.

– Bularga ozor bermanglar, – dedi. Bularni qo'rqmoqda, Shohdorxonni Asqar tog'iga kelmoqda qo'yib, ana endi Taka-Yovmit elidan eshiting: Mullavachchalarning kelmaganidan Taka-Yovmit eli qo'rqishib, axtarib, har tarafga qarab, bular ham shu tog'ga,



qo‘shinning ustiga kelib qoldi. Bularning kelganini bilib, Shohdorxonning qo‘shini quvib yarmini bandi qilib oldi, yarmi qochdi. Qochganlar qochib, Odilxon podshoning oldiga bordi. Bo‘lgan voqealarni: «Bir cherik – lashkar Asqar tog‘ga keldi, yulduzdan ham ko‘p», – deb arz qildi. Odilxon podsho bu so‘zni eshitib, bu ham cherik lashkar yig‘moqchi bo‘lib, har tarafga, qo‘rg‘on-qo‘rg‘onga xat yubordi. Beklariga: «Darrov yig‘ilinglar!» – deb qattiq amr qildi. Oqshom bilan chopishib, erta bilan har tarafdin to‘zonlar paydo bo‘lib, qo‘rg‘onning atrofini lashkar tutdi. Odilxon podsho:

– Kelgan lashkar kim ekan, bilib kelinglar! – deb o‘zining Taka begi Zamon degan lashkar boshlig‘ini bir necha odamlarga qo‘shib, elchi qilib yubordi. Elchilar Shohdorxon Podshoning oldiga borib, qo‘llaridagi elchilik ariza-xatlarini ko‘rsatdilar. Shohdorxon mirzalariga:

– O‘qib ko‘ringlar, nima xat ekan, – dedi. Mirzalar o‘qib ko‘rdi. Xatda: «Bu qanday behurmatlik, podsholardan bunday behurmatlik lozim emas edi-ku. Podsholar yurishni, turishni oldin elchilar bilan bildirib, elchiga ko‘nmasa, so‘ngra safar qilib kelar edi. Bu rasm avvaldan oxir qoida bo‘lib kelayotgan edi...» – deb yozibdi. Shohdorxon bu so‘zlarni eshitib, Holmon vaziriga qaradi.

Holmon vazir: – O‘zingiz bilasiz, men bir farmonbardorman. Siz har nima amr qilsangiz, shuni qilaman, – dedi. Podshoga maslahat bermadi. Shunda Shohdorxon elchilarga qarab:

– Borib Odilxon podsholaringga aytinglar, kelib menga fuqaro bo‘lsin, boj-xiroj bersin! Bermasa, fuqaro bo‘lmasa, yurtini, elini yer bilan yakson qilib, hammasini to‘s-talqon qilib, o‘zlarini o‘ldirib, mollarini o‘lja qilib, lashkarlarimga talatib yuboraman! – dedi. Elchilar Shohdorxonning qog‘ozini Odilxon podshoga olib kelib ko‘rsatdilar. Ana shunda Odilxon podsho:

– Unday bo‘lsa, dushman tog‘dan oshmay, uning ustiga bizlar ham boraylik, – dedi. Hamma lashkar jam bo‘lib, bular ham Asqar tog‘dan oshib qo‘sh tashladi. Bularni Shohdorxonga ko‘rinish berib, qo‘nmoqda qo‘yib, endigi gapni Holmon vazirdan eshiting: Holmon vazir, podshohimning tuzini ko‘p yeganman, har nima bo‘lsa ham bir so‘z aytayin deb, Shohdorxon podshoga qarab aytdi:

– E podsho, «Dushmaning xas bo‘lsa qo‘rq» degan ekan. Sen ham butunchiligingning fikrida bo‘l! Shohdorxon podsho: – Urushga tayyorlik qilinsin, – deb amr qildi. Urush nog‘orasini urdi, karnay-surnaylarni chaldirib, lashkarini otlariga mindirib, miltiqni o‘qlab, piltani choqlab, choq bo‘ldi. Odilxon podsho ham urush nog‘orasini chaldirib, lashkarlarini choqlab otga mindirib, urushmoqqa choq bo‘ldi, ko‘ngillari to‘q bo‘ldi. Ikki taraf podsholarining urush uchun qilgan shon-u shuhratlariga yer tebrandi. Surnay-karnay, sibizg‘a tortganiga barcha polvonlar simobday erib, yo‘lbarsday g‘arqirab, g‘ayrati jo‘sh urib, bir-birlariga qarshi turdi. Podshohi haqiqiy – Xudoning o‘zi. Bular podshohi majoziy – Xudoning yaratgan maxluqi. Bularni ham Xudo podsho qilib qo‘yibdi. Shu sababdan podshohi majoziyini fuqaro yomonlasa, podshohi haqiqiyning achchig‘i kelib, Xudoga malol kelar ekan. Shohdorxon podshoning hech kimning so‘ziga kirmay, Holmon vazirning so‘zini olmay: «Yovmitlarni darrov o‘ldiraman, yurtini olaman, molini o‘lja, ayollarini yebir-yesir qilaman», – deb yovmitlarni ko‘zga ilmay manmanlik bilan kelgani Xudoga xush kelmadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» dostonining asosiy mavzusi nimalardan iborat?
2. Yovmit va Zargar yurti o‘rtasida nima uchun urush chiqdi? Uning oldini olish mumkin yoki mumkin emasligi haqidagi fikringizni bildiring.
3. Dostonda Hiloloy qanday tasvirlanadi? Uning matonatiga matnga tayangan holda baho bering.
4. Go‘ro‘g‘li qayerda va qanday holatda dunyoga keldi? Matndan aynan o‘sha parchani topib qayta o‘qing va izohlang.
5. Go‘ro‘g‘liga xos bo‘lgan sifatlarni matn asosida tavsiflang.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

44 listdan iborat adabiyot fanidan 11-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**